

**PEDAGOGIK TA'LIM YO'NALISHLARIDA XORIJ TILLARINI O'QITISH
AHAMIYATI**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti Boshlang'ich talim yo'nalishi*

5-BT-22 guruh talabasi

Xayrullayeva Baxtiniso

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Filologiya fakulteti ingliz fani o'qituvchisi*

Qayumova Mohinur Murodullayevna

Tel: +998884690704

mohinurqayumova10@gmail.com

Annotatsiya: Hozirgi tadqiqotlar ushbu jarayonni erta yoshda boshlash samariliroq bo'lishini ko'rsatadi. Bizning yurtimizda ham ushbu masalaga qat'iy e'tibor qaratilgan, xorijiy tillarni o'qitishda xususan ingliz tilini o'qitishda dunyoning yetakchi tashkilot va universitetlar hamkorligida yangicha yondashuv asosida dasturlar ishlab chiqilmoqda. Oxirgi 3 yilda bu jarayon maktab ta'limida ayniqsa o'z rivojini topmoqda. Til o'rganish ko'nikmalarini o'zlashtirish uchun rag'batlantiruvchi va interaktiv vaziyatlar va tadbirlarni yaratish juda muhimdir.

Kalit so'zlar: xorijiy til, erta yoshda til o'rganish, ta'limiy o'yin, faoliyat, ko'z-qo'l muvofiqlashuvi, faol ta'lim turlari, "Dressing", "Playing with blocks or legos".

Abstract: Current research shows that starting this process at an early age is more effective. In our country, strict attention is paid to this issue, programs are being developed based on a new approach to teaching foreign languages, especially English, in cooperation with the world's leading organizations and universities. In the last 3 years, this process is especially developing in school education. It is important to create stimulating and interactive situations and activities for the acquisition of language learning skills.

Key words: foreign language, language learning at an early age, educational game, activity, fine motor skills, hand-eye coordination, types of active education, "Dressing", "Playing with blocks or legos".

KIRISH.

Bog'cha va maktab yoshida o'yin bolaning eng asosiy va sevimli mashg'uloti bo'lganligi tufali bola atrof olamni ham o'yin orqali kashf etadi. Agar xorijiy tillarni ham o'yinga qorishtirgan xolda o'rgatilsa bu til ko'nikmalarining o'zlashtirilish samaradorligini bir necha barobarga oshiradi. O'yin bolani nafaqat jismoniy faolligini oshiradi shuningdek ruhiy tetiklikni ham shakllanitirshga yordam beradi. O'yin bolani

o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashiga, atrofdagilar bilan ijtmoy munosabatlarni shakllantirishga ham katta ko'mak beradi. Aynan o'yin orqali bolalar ta'lim oladilar va o'z iqtidorlarini kashf etadilar. Bunga erishish uchun sezgi organlarini faollashtiruvchi muhitni, jumladan vizual, eshitish, kinestetik kabi faol ta'lim turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq xisoblanadi. Ta'limiy o'yinlar musiqa asboblarni chalish, qo'shiqlar kuylash, she'r aytilish, raqsga tushish, o'yin o'ynash, videolar tomosha qilish, qo'l mehnati vositasida turli narsalar yasashni o'z ichiga oladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADOLOGIYA.

Xorijiy tillarni ham bolalarga erta yoshida o'rgatish til ko'nikma va malakalarining oson o'zlashtirishiga sabab bo'lar ekan. Ayniqsa ushbu bilim, ko'nikma, malakalar turli o'yin va ta'limiy faoliyatlar orqali singdirib borilsa, bola xoirijiy tillarni o'z ona tilisi kabi tabiiy tarzda rivojlantirib boradi. Ta'limiy o'yinlar bolada nafaqat bilim ko'nikma, malakalarni shakllantiradi balki ,shu bilan birga u bolani jismonan sog'lom rivojlanishini ta'minlaydi, ruhan tetiklashtiradi, o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi hamda atrofdagilar bilan ijtmoy munosabatlarni shakllantirishga katta ko'mak beradi. Shunigdek, uch yoshli bolaning miyasi katta yoshdagi odam miya faoliyatidan ikki karra tezroq va yaxshiroq ishlashi ham aniqlangan. Shuning uchun ingliz mutaxassislarining fikricha bolaning birinchi yildayoq ikkinchi tilni tanishtirib borish uni oson o'zlashtirishga yordam bo'lishini ta'kidlashadi. Ammo har qanday xolatda xam bolaning psixologik va til o'zlashtirish qobiliyatini hisobga olish nihoyatda muhim omil ekanligini unitmasligimiz kerak.

Yosh bolalarni ingliz tilini o'rganishida qiziqarli va muloqot qilishga rag'batlantiruvchi vaziyatlar va faoliyatlarga jalb qilish til ko'nikmalarini o'zlashtirish uchun juda muhim omil hisoblanadi. Faoliyat maqsadi ingliz tilini o'rgatish bo'lsa-da, u o'yin kabi bolalarni o'ziga jalb qila olishi hamda ushbu mashg'ulotlarga bolalar beixtiyor kirishib ketishi va bolalar xorijiy tilni o'z ona tili kabi tabiiy tarzda o'zlashtirib borishligini ta'minlash ham alohida e'tiborga muhtojdir. Yosh bolalarni ingliz tilini o'rganish uchun qiziqarli va rag'batlantiruvchi turli vaziyatlar hosil qilish va bolalarni unda faol ishtrok etishlarini ta'minlash barcha mavjud imkoniyatlardan foydalanish ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Bolaning erkin fikrlashga o'rgatish, undagi qiziquvchanlikni va atrofni o'rganishga bo'lgan rag'batni kuchaytirish, bolaning tasavvurini boyitish, ijodkorligini yuzaga chiqarishni eng oson va maqbul yo'li bu o'yindir. Bolalar o'ynashganda ular o'z g'oyalarini amaliyotga tatbiq qiladilar, farazlarni sinovdan o'tkazadilar, zaruriy ko'nikmalarni egallaydilar, o'z tasavvurlaridan foydalanishadi va o'zlarining dunyolarini kashf etishadi.

“Dressing” ta'limiy faoliyat turi orqali bolalarga dunyo xalqlarning ertak qahramonlarini tanishtirish mumkin. Ertak qahramonlarining obrazlarini bolalarga tanishtirilayotganda ularning kiyimlarini kiydirish va rol ijro etish ingliz tilida olib boriladi va bu faoliyat yordamida bolaning ingliz tili so'z boyligi ortadi va bola

tasavvuri, dunyoqarashi kengayadi. Ushbu ta'limiy faoliyat orqali bolalar, inson tana a'zolariga hamda kiyim kechakka oid bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va amaliyotda qo'llash imkoniga ega bo'ladilar. Inson tana a'zolari: head(bosh), arms(qo'llar), hands(qo'llar), foot (feet)(oyoqlar), legs(oyoqlar), eyes(ko'zlar)... Kiyimlar: dress(qizlar ko'ylagi), shirt(og'il bolalar ko'ylagi), t-shirt(futbolka), shoes(poyafzal), slippers(shippaklar), cap(kepka), belt(kamar), gloves(qo'lqoplar) ... Buyruq ham tana a'zolariga urg'u bergan xolda beriladi: put your arms through here (qo'lingizni shu yerga kiriting), tie this around your waist/wrist (belingizga taqing), put these on your feet (bularni oyog'ingizga kiying) — first your right foot (avval o'ng oyog'ingizdan boshlang), then your left foot (so'ng chap oyog'ingizga), put this over your head (boshingizga kiying).

“Playing with blocks or legos” Bolalarga ingliz tilida shakllar, ranglar va raqamlar haqida tushuncha berish maqsad qilinganda aynan bloklar, kubiklar hamda lego o'yini orqali amalga oshirilganda o'zlashtirish natijasi yaxshiroq bo'lishi amaliyotda o'z isbotini topgan. Bloklar, kubiklar va lego o'yinchoqlarini o'ynash bolani fikrlashga undaydi va biror ish qilishda uning ijodiy qobiliyatini yuzaga chiqaradi, shu bilan birga bu o'yinlar vositasida bolaning ingliz tilida lug'at boyligini oshirish imkoniyati ham paydo bo'ladi. O'yinlarda so'z boyligini ingliz tilida savol berish hamda asosiy tushunchalarni ko'rsatma orqali yetkazish bilan amalga oshiriladi. Bola bu o'yin orqali sanashni va tartiblashni o'rganadi:

How many blocks are there? (u yerda nechta kubik bor?)

Shall we put the blue ones here? (bu yerga ko'k kubikni qo'yamizmi?)

Narsalar joylashuvini predloglar orqali o'rganadilar: in(ichida), on(ustida), under(ostida), below(pastda), behind(orqasida), next to(yonida). O'lchov birliklari haqida tushuncha ega bo'ladilar: big(katta), small(kichik), long(uzun), short(qisqa). Quyidagi so'zlar yordamida bola yasayotgan narsalarga ko'rsatma beriladi: Find the the red block, please!(qizil kubikni toping!), Pull the blue one, please!(ko'k kubikni torting!), push them!(ularni suring!), Build the house, please!(uy quring!) make the car, please! (mashina yasang!). Bola yasayotgan narsa va shakllarga ta'rif beriladi: square(kvadrat), rectangle(to'g'ri to'rtburchak), tower(minora), house(uy), castle(saroy), garden(bog').

XULOSA.

Ta'limiy faoliyatda bolalarni faol qatnashishini ta'minlash, har bir bolaga aloxida e'tibor qaratish va bolani ushbu mashg'ulotda biror narsa o'rganish uchun rag'batlantirib borish lozim. Mashg'ulotga yutuqqa erishayotgan bolalarni ishi uchun maqtab qo'yish ham ulardagi rag'batni kuchaytiradi. Ammo psixologlarning fikricha maqtov shaxsga nisbatan emas balki qilingan ishiga nisbatan qaratilishi kerak, deyiladi. Chunki, maqtov shaxsga nisbatan berilsa bu bolani keyinchalik hudbinlikka yetaklab

borishi mumkin ekan. Ishiga qaratilgan maqtov keyinchalik ham har qanday ishni sifatli va tez bo'lishini ta'minlaydi.

FOYDANILGAN ADABIYOT:

1. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari va boshlang'ich maktab o'quvchilariga chet tilini o'rgatishda o'yinlar. Baxramova M.D. Tuzuvchi: Baxramova.M.D.,—T.2016.
2. Ergashovna M. G. TYPES OF FABRICS AND THEIR ANALYSIS //Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2023. – T. 2. – №. 5. – C. 59-61.
3. Qayumova, Mohinur Murodullayevna, Muhlisa Sobirjonovna Sobirjonova, and Feruz Qurbonaliyevich Saidov. "Galileo's influence on John Milton concept "individual". Similarities and differences between the outlook of Galileo and John Milton." Science and Education 2.6 (2021): 494-498.

Veb-sayt:

1. https://eacea.ec.europa.eu/national-policies/eurydice/content/teaching-and-learning-early-childhood-education-and-care-8_en. internet resurs
2. <https://www.britishcouncil.org/voices-magazine/how-young-children-learn-english-through-play> internet resurs
3. <https://www.parents.com/baby/development/intellectual/how-to-teach-your-child-a-foreign-language/> internet resurs